

Jonli suhbat



Tasavvur qiling, shahrimizdagi barcha odamlar gapira olmay qolsa nima bo'ladi? Hech kim gapirmasa, so'zsiz dunyoda qanday yashagan bo'lar edik?



Muloqot, so'zlashuv har bir inson hayotining muhim qismidir. Odamlar nimanidir muhokama qiladi, o'zining fikrini bildiradi, shunda ular bir-birini yaxshiroq tushunadi.

1

Nutq

Nutq – so'z va gaplar yordamida gapirish.

Biz
qanday
so'zlashamiz?

2

Imo-ishora

Imo-ishora – tana a'zolarining harakatlanishi (qo'l, oyoq, bosh).

3

Mimika

Mimika – yuz orqali his-tuyg'uni ifodalash.





Akmal onasi bilan qanday gaplashadi?



Nima deb o'ylaysiz, til paydo bo'lguncha odamlar qanday gaplashishgan?



1. Bir-biringizga qarab, salomlashing.
2. "Do'stimni mehmonga taklif qilyapman" mavzusida sahna ko'rinishini ijro qiling. Xayrlashing.
3. Endi xuddi shu sahnani so'zsiz ijro qilib ko'ring.
4. Qaysi sahna oson, qaysi sahna qiyin bo'lganini xulosa qiling.
5. Bu sahnada nimani so'zsiz ifodalash oson bo'ldi?



O'rtog'laringiz bilan bu imo-ishoralar qaysi paytda qilinishi haqida gaplashing. Bu ishoralar nima degani?



Azizaning mimikasiga qarab, nima demoqchi bo'layotganini toping.



Hayvonlar so'zlasha olmaydi, lekin ular ham inson bilan o'zaro muloqot qiladi, his-tuyg'ularini, xursandligini yoki g'azabini bildiradi.



O'zingiz yaxshi ko'rgan biror she'rning to'rt qatorini yod oling. Avval bu she'rni mimikasiz, imo-ishorasiz o'qib ko'ring. Keyin esa mimika va imo-ishoralar bilan o'qing. Qaysi holatda she'r qiziqarliroq chiqyapti?